

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV MENEJMENTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI.....	14
Xabibullayev Dadajon Ro‘ziboyevich	
GREEN ECONOMY TRANSITION AND INVESTMENT CHALLENGES IN DEVELOPING COUNTRIES	20
Ismoilov Sulaymon Axmadjon o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONDA YASHIL SOLIQQA TORTISH TIZIMINI MUAMMOLAR, YECHIM VA IMKONIYATLARI ASOSIDA JORIY ETISH.....	24
Abdumannobova Gulnoz Akmaljon qizi	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	30
Nosirova Kamola Alimovna	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	39
Xazratov Abror Panjiyevich	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O‘SISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	44
Astanayev Kulmaxammat Sanayevich	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION DEPOZIT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING BANK RESURS BAZASIGA TA‘SIRI.....	51
Ro‘zimurodov Olim, Normamatov Ruslanbek Shamsiddin o‘g‘li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG‘URTA EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY ASOSLARI.....	57
Xalikulova Gulzada Tadjimuratovna, Kodirova Samira Kamol qizi	
MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO‘RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO‘RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO‘LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOY SUG‘URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI	64
Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o‘g‘li	
ТЕОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ И ЕГО СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НА ПРИМЕРЕ БЛИЖНЕВОСТОЧНЫХ СТРАН.....	70
Гаффоров Шухрат Насриевич	
IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA MADANIY TURIZM SOHASIDAGI SUBYEKTLAR TA‘SIRINI BAHOLASH USULLARI.....	77
Shohruzbek Ruziyev	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH SIYOSATINING DASTAKLARI.....	84
Inatullayeva Intizor Jamshid qizi	
RAQAMLI MEDIA BOZORI SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARIDA DAROMAD MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING IQTISODIY USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	87
Sharipova Shahlo Istamovna	
TIJORAT BANKLARINING AHOLINING HUDUDIY XARID QOBILİYATIGA YO‘NALTIRILGAN KREDIT SIYOSATINI TASHKIL ETISH TIZIMI	92
Tursunov Bekmuxammad Omonovich, Qarshiyev O‘ktam G‘aybullo o‘g‘li	

TIJORAT BANKLARINING AHOLINING HUDUDIIY XARID QOBILIYATIGA YO'NALTIRILGAN KREDIT SIYOSATINI TASHKIL ETISH TIZIMI



Tursunov Bekmuxammad Omonovich

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
“Mediamenejment va mediamarketing” kafedrası mudiri,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

ORCID: 0000-0001-9297-8362

E-mail: omonovich-0387@mail.ru



Qarshiyev O'ktam G'aybullo o'g'li

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
“Mediamenejment va mediamarketing” kafedrası assistenti.

ORCID: 0009-0000-5739-1303

E-mail: qarshiyevoktam716@gmail.com

Annotatsiya: Tijorat banklarining aholining hududiy xarid qobiliyatiga yo'naltirilgan kredit siyosatini tashkil etish tizimi hamda uni amalga oshirishning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan. Kredit siyosatining hududiy darajadagi iqtisodiy nomutanosibliklarni qisqartirishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslangan. Hududiy iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf etishning integral asosini ta'minlashga yo'naltirilgan kredit siyosatini tashkil etish mexanizmi orqali tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirish imkoniyatlari ochib berilgan. Tijorat banklarining aholining hududiy xarid qobiliyatiga yo'naltirilgan kredit siyosatini tashkil etish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kredit siyosati, kredit portfeli, kredit riski, muammoli kreditlar, kredit diversifikatsiyasi, hududiy iqtisodiy nomutanosiblik, aholi xarid qobiliyati, iqtisodiy faollik.

Аннотация: Исследованы система организации кредитной политики коммерческих банков, ориентированная на региональную покупательную способность населения, а также научно-теоретические основы её реализации. Научно обоснована роль кредитной политики коммерческих банков в сокращении региональных экономических диспропорций. Раскрыты возможности снижения доли проблемных кредитов коммерческих банков посредством механизма организации кредитной политики, направленного на формирование комплексной основы устранения региональных экономических диспропорций. Разработаны научные предложения и практические рекомендации по совершенствованию системы организации кредитной политики коммерческих банков, ориентированной на региональную покупательную способность населения.

Ключевые слова: кредитная политика, кредитный портфель, кредитный риск, проблемные кредиты, диверсификация кредитов, региональная экономическая диспропорция, покупательная способность населения, экономическая активность.

Abstract: The study examines the system for organizing the credit policy of commercial banks oriented toward the regional purchasing power of the population and substantiates the scientific and theoretical foundations of its implementation. The role of commercial banks' credit policy in reducing regional economic imbalances is scientifically justified. Opportunities for decreasing the share of non-performing loans through a credit policy mechanism aimed at establishing an integrated framework for overcoming regional economic disparities are identified. Scientific proposals and practical recommendations for improving the system of organizing the credit policy of commercial banks oriented toward the regional purchasing power of the population are developed.

Keywords: credit policy, credit portfolio, credit risk, non-performing loans, credit diversification, regional economic imbalance, purchasing power of the population, economic activity.



KIRISH

Bozor iqtisodiyotining muhim asosi narxlarning bozor orqali shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi mexanizmlar harakati o'zaro manfaatli munosabatlar majmuasi va kombinatsiyasiga asoslanishini ko'rsatadi. Mazkur manfaatli munosabatlar ishlab chiqarishning doiraviy sikli kengayib borishiga xizmat qiladi. Ishlab chiqarish doiraviy siklining kengayishi yangi korxonalar hamda ish o'rinlarining paydo bo'lishi hisobiga iqtisodiyotning tarmoq va sohalari bo'ylab kapitalning erkin harakatini ta'minlaydi. O'z navbatida, bu holat iste'mol, investitsiya va jamg'arish bilan bog'liq optimal mutanosiblikni ta'minlash hisobiga iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Mazkur mutanosiblik ta'sirida iqtisodiy tizimning formatsion asosi shakllanadi. Natijaviy ko'rsatkichlar aholining omilli daromadlari bilan bog'liq proporsional nisbatning shakllanishiga imkon beradi. Ushbu makroiqtisodiy jarayonda davlat pul bozorini tartibga solishning monetar va nomonetar usullari orqali umumiy iqtisodiy muvozanatni ta'minlashga harakat qiladi.

Pul muomalasi qonuni mamlakatdagi pul bozorini tartibga solishning muayyan tizimi doirasida amal qilganligi bois, muomalaga pul chiqarish va uni tartibga solish bilan bog'liq muayyan mexanizmlar harakatini ta'minlashga xizmat qiladigan institutsional tashkilotlar faoliyatini yo'lga qo'yadi. Mazkur tashkilotlar pulni muomalaga chiqarish va uning erkin harakatini ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarda manfaatli operatsiyalarni muvofiqlashtirib boradi. Xususan, mamlakat doirasida tijorat banklari faoliyatini samarali tashkil etish va uni muvofiqlashtirish mexanizmlarining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi nafaqat banklar faoliyatini samarali tashkil etish tizimini takomillashtirishga, balki ular faoliyatini qo'llab-quvvatlashning tashkiliy asosini shakllantirishga ham imkon beradi. Mamlakatimizda 2025-yil 1-maydan boshlab ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan tijorat banklariga, ular huzuridagi investitsiya kompaniyalariga auksionda sotilmasdan qarzdorliklarni so'ndirish evaziga bank balansiga olingan mol-mulkni bozor qiymatida to'g'ridan to'g'ri sotish, shu jumladan, kreditlarni bo'lib-bo'lib to'lash, lizing shartnomalari yoki qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa bitimlarni amalga oshirishga ruxsat berilishi banklarning moliyaviy mustaqil tizimini shakllantirish uchun asos yaratilayotganligini ko'rsatadi [1]. Mazkur mexanizm tijorat banklari faoliyatini moliyaviy jihatdan takomillashtirishning tashkiliy jihatlari bozor tizimiga yo'naltirilgan transformatsion asosda shakllantirish bilan bir qatorda, aholining ishbilarmonlik va bozor faolligining yuqori sur'atlarda o'sib borishini ham ta'minlaydi. Natijada tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy tizimining iqtisodiy qashshoqlikni qisqartirish bilan bog'liq iqtisodiy islohotlarga uyg'unligi ta'minlanadi.

Yuqoridagi holatlar mamlakatimizda tijorat banklarining kredit siyosatini tashkil etish tizimini tadbirkorlik muhitining tashkiliy asoslariga yo'naltirish bilan birga, kredit faoliyatining kompleks natijadorligini ta'minlashda aholining hududiy xarid qobiliyatiga yo'naltirilgan mexanizmni tashkil etish jarayoniga doir ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda makroiqtisodiy tahlilning o'rni va uni tashkil etishning ilmiy asoschisi hisoblangan ingliz iqtisodchi olimi J.M. Keyns o'zining "Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi" asarida ishsizlikning asosiy sababini aholining samarali talabi shakllanmaganligi orqali asoslab beradi. Bu jarayonda tijorat banklarining asosiy funksiyasi odamlarning naqd pulga bo'lgan talabini qondirish ekanligi qayd etiladi. Banklarning yuqori foiz stavkalarida kredit berishi samarali talabni cheklashi va ishsizlikning oshib borishiga ta'sir etuvchi omillar uyg'unligini ta'minlashi ta'kidlanadi. Shu bois samarali talabni qondirish maqsadida tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar berish amaliyotini joriy etish taklif etiladi [2].

M. Fridman va A. J. Shvars tadqiqotlarida mamlakat iqtisodiyotida pul massasi va uning tarkibiy asosi tahlil qilinadi. Bank tizimining pul multiplikatorini shakllantirishdagi o'rni depozit-rezerv mexanizmi orqali ochib beriladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, pul taklifini tartibga solish mexanizmini mamlakat aholisining daromadlari darajasi va bozor narxlariga bog'liq holda shakllantirish zarurligi asoslanadi. Bu holat pul massasidagi o'zgarishlarning uzoq muddatli inflyatsiya va iqtisodiy faollikning muhim omili ekanligini ifodalashga xizmat qiladi [3].

S. Kelton tadqiqotlarida zamonaviy monetar nazariyalarning jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashdagi o'rni yoritib berilgan. Mamlakatdagi budjet taqchilligi noto'g'ri pul va soliq islohotlari natijasi ekanligi ta'kidlanadi. Doimiy budjet taqchilligi pul massasini muvofiqlashtirishning asosiy omili hisoblangan investitsion jarayonlarning hayotiylik siklini qisqartirishga sabab bo'lishi qayd etiladi [4].

V. V. Gordina tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda tijorat banklarining pul massasini tartibga solishdagi roli uning kredit siyosati orqali namoyon bo'lishi qayd etilgan. Kredit siyosatini to'g'ri tashkil etish makroiqtisodiy, mintaqaviy va tarmoq doirasidagi muvozanatni ta'minlashning asosiy omili ekanligi ta'kidlanadi. Shu bois tijorat banklarining kredit siyosatini shakllantirishda mintaqalar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq tafavutlarni hisobga olish tavsiya etiladi [5].

A. S. Dovgan tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotda tovar-pul muomalasini tartibga solishning asosiy funksional jihatlarini tahlil qilindi. Milliy valyutaning samarali muomalasini ta'minlashda pul-kredit siyosatini tartibga solish va tovar ishlab chiqarishning yopiq sikllik tizimining o'zaro ta'siri integral jihatdan baholanadi [6].

V. V. Kapralov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda bank kredit siyosatining samarali tizimi unga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillarga muvofiq holda tahlil qilindi. Barqaror kredit siyosatini ta'minlashda tashqi omillarning kompleks majmuasi aholining iqtisodiy faolligi asosi ekanligi e'tirof etiladi [7].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Q. J. Mirzaev, B. M. Boboqulov, Sh. S. Sharifov, S. B. Boboqulov va Sh. X. Xalimovlarning ilmiy tadqiqotlarida mamlakat moliya tizimini samarali tashkil etish jarayonlari bevosita tijorat banklari faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish bilan bog'liq holda tahlil qilindi. Tijorat banklari faoliyatining samaradorligi bank va aholi o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarda risklarni samarali boshqarish orqali namoyon bo'lishi e'tirof etiladi [8].

O. Sh. Namozov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda monetar siyosatni tashkil etishning o'tish davriga xos xususiyatlari o'rganilgan. Monetar siyosatning inflyatsion jarayonlarni tartibga solish va milliy valyuta barqarorligini ta'minlashdagi o'rni asoslab berilgan [9].

L. X. Kadirovning tijorat banklari moliyaviy boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishga doir ilmiy tadqiqotlarida banklar moliyaviy boshqaruvining diversifikatsion mexanizmini shakllantirish orqali korporativ mijozlarning kredit qarzдорligi bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddatlarini qisqartirish va banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan marketing kommunikatsiyalari tizimi ishlab chiqilgan [10].

M. A. Abramova tadqiqotlarida milliy valyuta barqarorligini ta'minlash va pul muomalasini tartibga solish jarayonlari Markaziy bankning giperfaol monetar siyosatiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi [11].

A. A. Azlarova o'z tadqiqotlarida tijorat banklarining kredit risklarini oldini olishga yo'naltirilgan kredit portfelini shakllantirishda bozor omillarining roliga alohida ustuvorlik beradi [12].

Ammo yuqoridagi ilmiy tadqiqotlarda tijorat banklarining kredit faolligini oshirish masalalari ko'proq tashkiliy-institutsional omillar bilan bog'liq holda o'rganilgan bo'lib, aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati, xususan, xarid qobiliyatiga yo'naltirilgan jarayonlar tizimli asosda tadqiq etilmaganligi bilan xarakterlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida mantiqiy abstraksiya va tizimli tahlil usullaridan foydalanish orqali tijorat banklarining aholi hududiy xarid qobiliyatiga yo'naltirilgan kredit siyosatini tashkil etish tizimi ilmiy jihatdan asoslangan. Aholining hududiy xarid qobiliyatiga yo'naltirilgan kredit siyosatini tashkil etishning zaruriyati va uning tashkiliy asoslarini shakllantirish uslubiyati statistik usul orqali baholangan. Empirik tahlil natijalariga asoslanib, tijorat banklarining aholi hududiy xarid qobiliyatiga yo'naltirilgan kredit siyosatini tashkil etish tizimini shakllantirishga doir ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholining real daromadlari va iste'mol darajasi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini samarali tashkil etishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda davlatning moliya-kredit siyosati iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy himoyani ta'minlashning integral asosini shakllantirishga imkon beradi. Moliya-kredit siyosati aholining tadbirkorlik bilan bog'liq faolligini ta'minlashning integral-tashkiliy asosini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi va bu orqali muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori iqtisodiyotga chiqariladi. Bozor munosabatlarini takomillashtirish jarayonida turli bevosita va bilvosita omillar ta'sirida pul mablag'larining notekis taqsimoti yuzaga keladi. Davlat progressiv soliq tizimi va ijtimoiy transferlar orqali daromadlar notekisligini bartaraf etib boradi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan makroiqtisodiy siyosatning tub zamirida mazkur chora-tadbirlarning o'rni va amaliy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilayotgan bo'lib, tegishli islohotlar asosi aholining ish hamda bozor faolligini ta'minlovchi tizim orqali muvofiqlashtirib borilmoqda. Aholining daromadlar darajasi va iste'mol hajmi o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash xarid qobiliyatining o'sib borayotgan iste'mol hajmiga nisbatan tegishli proporsiyasini shakllantirish imkoniyatini beradi. Xususan, 2021–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi hududlarida aholining yillik real daromadlari darajasi 5–8 foizni, nominal daromadlari darajasi esa 15–20 foizni qayd etgan. Natijaviy ko'rsatkichlar aholi jon boshiga umumiy daromadlar darajasining o'rtacha 16–18 foiz atrofida o'sishini ta'minlagan (1-jadval).




1-jadval

2021–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi hududlarida aholi jon boshiga umumiy daromadlarning o‘shish sur‘ati, foizda [13]

Hududlar	2021	2022	2023	2024	2025
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	119,6	117,0	111,3	117,2	113,0
Andijon viloyati	119,8	121,6	119,3	119,9	109,1
Buxoro viloyati	123,3	117,6	110,9	118,1	117,6
Jizzax viloyati	120,4	113,7	112,6	112,8	113,8
Qashqadaryo viloyati	118,8	119,0	110,2	118,0	118,1
Navoiy viloyati	123,7	109,3	114,9	115,8	116,1
Namangan viloyati	122,5	120,4	108,4	115,5	114,8
Samarqand viloyati	122,0	118,2	108,4	122,0	115,2
Surxondaryo viloyati	122,0	122,4	110,1	115,6	116,2
Sirdaryo viloyati	116,2	113,3	114,0	115,1	115,6
Toshkent viloyati	123,8	112,6	114,0	118,0	113,5
Farg‘ona viloyati	127,0	121,4	120,9	110,2	125,5
Xorazm viloyati	128,5	123,2	103,9	123,4	118,2
Toshkent shahri	119,3	120,8	123,2	131,6	118,6

Jadval ma‘lumotlari 2021–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining Toshkent shahri, Xorazm hamda Farg‘ona viloyatlarida aholi jon boshiga umumiy daromadlarning yuqori o‘shish sur‘atlari qayd etilganligini ko‘rsatadi. Toshkent, Andijon, Buxoro, Navoiy viloyatlarida esa aholi jon boshiga umumiy daromadlarning o‘rtacha o‘shishi kuzatilgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlarida daromadlarning quyi darajadagi o‘shish ko‘rsatkichlari shakllangan.

2021–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida aholi daromadlari tarkibida transferlardan olingan daromadlar darajasining o‘rtacha ko‘rsatkichda saqlanib qolishi ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti tizimining institutsional transformatsiyasi bosqichma-bosqich shakllanib borayotganini ko‘rsatadi. Daromadlar tarkibida transfer to‘lovlari ulushining o‘zaro barqaror nisbatda saqlanib qolishi aholi farovonligini oshirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy siyosat yuritilayotganligini ifodalaydi (1-rasm).



1-rasm. 2021-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida aholi daromadlari tarkibi va ularning manbalar bo‘yicha ulush[13]

O‘zbekiston Respublikasida aholi daromadlarining 2021–2025-yillardagi tahlil natijalari mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor modeliga bosqichma-bosqich o‘tish jarayonlari bilan uzviylikini namoyon etadi. Mazkur yillarda daromadlar tarkibida birlamchi daromadlar va

transfer to'lovlarning dinamik o'zgarishi iqtisodiy tizimning bozor transformatsiyasi ta'sirida shakllanganligini ko'rsatadi.

Tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash tizimi ham aholining iqtisodiy faolligini oshirish jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatayotgan bo'lib, mazkur natijadorlikning miqyos ta'siri aholining birlamchi daromadlari hajmini oshirishga xizmat qilmoqda.

2021–2025-yillarda tijorat banklari kredit portfelining hududiy taqsimotida Toshkent shahri, Farg'ona, Toshkent, Samarqand viloyatlari yuqori o'sish ko'rsatkichlarini qayd etgan (2-jadval).

2-jadval

2021–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari kredit portfelining hududiy taqsimoti (trln so'mda) [14]

Hududlar	2021	2022	2023	2024	2025
Qoraqalpog'iston Respublikasi	9,8	11,4	13,6	16,1	18,6
Andijon viloyati	13,7	16,2	19,8	22,7	24,9
Buxoro viloyati	12,1	14,5	17,9	21,3	24,4
Jizzax viloyati	8,9	10,8	13,4	16,2	18,9
Qashqadaryo viloyati	14,2	17,1	20,5	23,4	25,2
Navoiy viloyati	10,5	12,8	14,9	16,7	18,3
Namangan viloyati	11,6	13,9	16,1	18,2	19,7
Samarqand viloyati	16,4	19,8	22,6	25,7	28,6
Surxondaryo viloyati	10,9	13,2	16,5	19,4	21,8
Sirdaryo viloyati	7,5	9,2	11,7	13,8	16,0
Toshkent viloyati	15,8	18,9	22,1	25,3	27,8
Farg'ona viloyati	17,1	20,6	24,3	27,2	29,8
Xorazm viloyati	11,3	13,6	16,8	20,1	23,4
Toshkent shahri	198,4	228,7	256,9	273,8	284,5

2021–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari kredit portfeli hududiy taqsimotining tahlil natijalari hududlarda kredit resurslari barqaror o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi. Ammo bu ko'rsatkich hududlar darajasida sezilarli farqlanadi. Banklarning eng yuqori kredit konsentratsiyasi Toshkent shahriga to'g'ri keladi. Respublikaning Farg'ona, Samarqand, Toshkent, Qashqadaryo va Andijon viloyatlarida ham kredit portfelining nisbatan yuqori o'sish dinamikasi qayd etilgan bo'lib, mazkur hududlarda kredit talabining ortishi sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning kengayishi orqali izohlanadi.

Tijorat banklari kreditlarining o'rta darajadagi o'sish ko'rsatkichlari Buxoro, Namangan, Surxondaryo, Xorazm, Navoiy, Jizzax viloyatlarida qayd etilgan. Bu hududlarda kreditlash jarayonlarining o'sish sur'atlari qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasi rivoji bilan bog'liq.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Sirdaryo viloyatlarida boshqa hududlarga nisbatan pastroq sur'atlarda o'sishini investitsion faollikning pastligi va iqtisodiy tarmoqlarning tarqoq diversifikatsiyasi orqali izohlash mumkin.

Mazkur yillar oralig'ida hududlar kesimida bank kreditlarining o'sishi va aholining daromadlar darajasi o'zgarishi o'rtasida ijobiy korrelyatsion bog'liqlik mavjud. Kredit resurslari hajmi ko'proq yo'naltirilgan hududlarda iqtisodiy faollik darajasi ortib, aholining daromadlari yuqori o'sish sur'atlarini qayd etgan.

2021–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining kredit faolligi oshgan hududlarida iste'mol narxlarini indeks dinamikasi qolgan hududlarga nisbatan yuqori o'sish ko'rsatkichini qayd etgan. Ushbu davr mobaynida mamlakatda inflyatsion jarayonlarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri bosqichma-bosqich pasayish tendensiyasiga ega bo'lsa-da, inflyatsion jarayonlarning nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Toshkent shahrida qayd etilgan. Bu ko'rsatkich Toshkent shahrida 2021-yildagi 12,6 foizdan 2025-yilda 9,1 foizga pasaygan. Tegishli holat Toshkent shahri aholisining yuqori iste'mol faolligi hisobiga tovar va xizmatlar narxlarining shakllanishi bozor mexanizmiga kuchli bog'liqligini ko'rsatadi. Shuningdek, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida iste'mol narxlarini indeks nisbatan yuqoriroq o'sish ko'rsatkichini saqlab qolgan. Ushbu hududlarda olingan kreditlar va aholi daromadlarining ma'lum qismi logistik xarajatlar ortishi hisobiga importga bog'liqlikni kuchaytirgan (3-jadval).



3-jadval

2021–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi hududlari kesimida iste‘mol narxlari indeksining o‘shish sur‘ati, foizda [13]

Hududlar	2021	2022	2023	2024	2025
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	11,2	12,8	9,4	8,7	7,9
Andijon viloyati	10,8	12,1	9,1	8,4	7,6
Buxoro viloyati	11,5	13,0	9,8	8,9	8,1
Jizzax viloyati	10,9	12,3	9,0	8,3	7,5
Qashqadaryo viloyati	11,7	13,4	10,1	9,2	8,4
Navoiy viloyati	11,4	12,9	9,7	8,8	8,0
Namangan viloyati	10,7	12,0	8,9	8,2	7,4
Samarqand viloyati	11,3	12,7	9,5	8,7	7,9
Surxondaryo viloyati	11,8	13,5	10,3	9,4	8,6
Sirdaryo viloyati	10,6	11,9	8,8	8,1	7,3
Toshkent viloyati	11,1	12,5	9,3	8,5	7,8
Farg‘ona viloyati	10,9	12,2	9,0	8,3	7,5
Xorazm viloyati	11,4	12,8	9,6	8,8	8,0
Toshkent shahri	12,6	14,2	10,8	9,9	9,1

Sirdaryo, Namangan, Jizzax va Farg‘ona viloyatlarida nisbatan past va barqaror inflyatsion jarayonlar kuzatilgan. Ushbu hududlarda ishlab chiqarish hajmining ortishi iste‘mol bozorida narxlarni tartibga soluvchi bosh omil vazifasini bajarganligini ko‘rsatadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Samarqand, Navoiy, Xorazm va Toshkent viloyatlarida iste‘mol narxlari indeksi o‘rta diapazondagi ko‘rsatkichga ega bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich ushbu hududlarda 2021-yildagi yuqori ko‘rsatkichdan 2025-yilga kelib pasayish tendensiyasini qayd etgan. Mazkur natijadorlikni hududlardagi ishlab chiqarish va xizmatlar sohasida raqobat muhitining takomillashib borishi orqali izohlash mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi hududlarida 2021–2025-yillarda iste‘mol narxlari indeksi, aholi daromadlari dinamikasi hamda tijorat banklari kredit portfeli taqsimoti bilan bog‘liq kompleks tahlil natijalari ushbu ko‘rsatkichlar o‘rtasida sabab-oqibatli makroiqtisodiy birlik mavjudligini ko‘rsatadi. Tahlillar aholi daromadlarining oshishi ichki iste‘mol talabining kengayishiga olib kelishini ifodalashga xizmat qiladi. Daromadlarning o‘shishi iste‘mol savatchasidagi tovar va xizmatlarga nisbatan umumiy talab hajmini oshirgan bo‘lib, iste‘mol narxlari indeksining shakllanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatgan. Milliy iqtisodiyotda kreditlar hajmining oshishi va aholi daromadlari darajasining o‘shishi natijasida shakllanadigan qo‘shimcha iste‘mol talabi iqtisodiyotda pul massasi va iste‘mol faolligini oshirgan. Natijada narxlar darajasi ma‘lum inflyatsion bosim ta‘siri ostida qolgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda aholi daromadlari darajasining o‘shishi, kredit portfelining kengayishi va iste‘mol narxlari indeksi o‘rtasida o‘zaro uzviy bog‘liqlik mavjud bo‘lib, ushbu bog‘liqlik istiqbolda tijorat banklari kredit siyosatini ishlab chiqishda aholining ichki iste‘mol talablarini qondirish va hududiy iqtisodiy tenglikni ta‘minlash kabi holatlarga e‘tibor berishni taqozo etadi. Mazkur yondashuv kredit resurslarini taqsimlash va iqtisodiy o‘shishning barqarorligini ta‘minlash bilan bir qatorda, inflyatsion ko‘rsatkichlarni jilovlash imkoniyatini beradi.

Yuqoridagi holatlarni hisobga olib, tijorat banklarining aholi hududiy xarid qobiliyatiga yo‘naltirilgan kredit siyosatini tashkil etish tizimini takomillashtirishda quyidagi vazifalar ijrosiga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- hududlar kesimida tijorat banklarining kredit siyosatini differensiallashtirish orqali har bir hududda iqtisodiy faollik darajasi va investitsion jarayonlar o‘rtasidagi integral bog‘liqlikni ta‘minlash hisobiga kredit resurslaridan foydalanish natijadorligini oshirish;

- iste‘mol narxlari indeksining hududiy monitoring qilish tizimini shakllantirish orqali aholi daromadlari, bandlik darajasi va iste‘mol xarajatlari asosida kredit ajratish tizimini joriy etish;

- iste‘mol va ishlab chiqarish kreditlari o‘rtasida muvozanatni ta‘minlashning kredit skoring tizimini shakllantirish hisobiga kredit risklarini kamaytirish va aholining to‘lov qobiliyati bilan bog‘liq jarayonlarning prognoz ssenariylarini ishlab chiqish;

- iqtisodiyotda kambag‘allikni qisqartirishning umumdavlat dasturlarini shakllantirishda aholini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan kreditlarni ajratish tizimining ichki algoritmini aholi iste‘mol tarkibi hamda



daromadlari darajasiga muvofiq ishlab chiqish hisobiga kredit siyosatini amalga oshirishni inflyatsion bosimdan himoyalash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-apreldagi "Qarzdorlik hisobiga banklar balansiga olingan mol-mulklar realizatsiyasini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-142-son qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-7479146>
2. Keynes, J. M. *The General Theory of Employment, Interest and Money*. – London: Macmillan, 1936.
3. Friedman, M., Schwartz, A. J. *A Monetary History of the United States, 1867–1960*. – Princeton: Princeton University Press, 1963.
4. Kelton, S. *The Deficit Myth: Modern Monetary Theory and the Birth of the People's Economy*. – New York: PublicAffairs, 2020.
5. Гордина В. В. Формирование кредитной политики коммерческого банка с учетом региональных особенностей // Финансы и кредит. – 2012. – № 48 (528). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-kreditnoy-politiki-kommercheskogo-banka-s-uchetom-regionalnyh-osobennostey>
6. Довгань А. С. Разработка региональной системы центральных банков (РСЦБ) и специальной денежно-кредитной политики в зоне обращения ЕРВ как регулирующего инструмента управления покупательной способностью финансовых средств // Национальные интересы: приоритеты и безопасность. – 2016. – № 8 (341). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/razrabotka-regionalnoy-sistemy-tsentralnyh-bankov-rstsb-i-spetsialnoy-denezhno-kreditnoy-politiki-v-zone-obrascheniya-erv-kak>
7. Капралов В. В. Формирование кредитной политики в коммерческих банках // Научный лидер. – 2022. – № 19 (64). – URL: <https://scilead.ru/article/2150-formirovanie-kreditnoj-politiki-v-kommerchesk>
8. Mirzaev Q. J., Boboqulov B. M., Sharifov Sh. S., Boboqulov S. B., Xalimov Sh. X. *Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish: o'quv qo'llanma*. – Samarqand: "Fan bulog'i" nashriyoti, 2023. – 374 b.
9. Намозов О. Ш. *Монетарная политика в переходной экономике: концептуальные подходы и программные направления*: автореф. дис. ... д-ра экон. наук. – Ташкент, 2001. – 28 с.
10. Kadirov L. X. *Tijorat banklari moliyaviy boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*. – Vuxoro, 2026. – 56 b.
11. Абрамова М. А. *Национальная денежная система: теория, методология исследования, концепция развития в условиях модернизации современной экономики*. – М.: ИНФРА-М, 2014. – С. 38–39.
12. Азларова А. А. Тижорат банклариди кредит портфелини самарали бошқариш масалалари // "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журналі. – 2018. – № 6 (00038).
13. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy axborot sayti ma'lumotlari. – www.stat.uz
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy axborot sayti ma'lumotlari. – www.cbu.uz

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100